

## 5-Mavzu: Fayzli ko‘chalar - mahallamiz ko‘rki

### Darsning maqsadi:

- Zamira Ibrihimovaning “Bizning ko‘cha” hikoyasi bilan tanishtirish;
- chiroyli, sarishta, fayzli ko‘chada yashashga chorlash;
- hikoya mazmunini ifodalovchi reja tuzishga o‘rgatish.

**Tayanch so‘zlar:** fayzli ko‘cha, gulzor, ni.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar, rag‘bat kartochkalari.

### Darsning borishi:

#### I. Darsning kirish qismi. (*3 daqiqa*)

Darsni tashkil qilish.

**Faollashtiruvchi mashq:** Yo‘l so‘zining o‘rniga qo’llash mumkin bo‘lgan so‘zni ayting.

#### II. O‘tilganlarni takrorlash. (*7 daqiqa*)

“Hashar-elga yarashar” matn mazmuni yuzasidan tuzilgan savollarga javob beriladi.

#### III. Darsning asosiy qismi. (*30 daqiqa*)

**Amaliy topshiriq:** Quyidagi so‘zlar bilan gap tuzing.

ko‘cha

xonodon

gulzor

### Mavzuni tushuntirish.

Rasm asosida suhbat uyushtiriladi. O‘quvchilar fayzli ko‘chalar haqida gapirib beradilar. (Fayzli ko‘chalar tasvirlangan videolavha ko‘rsatilishi mumkin.)

### Matn ustida ishlash.

“Bizning ko‘cha” hikoyasi o‘qitiladi. Hikoya yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Buvisi Shahzodga nima dedi?
2. Shahzod bilan singlisi Hilola qanday ishlarni bajardilar?
3. Nima deb o‘ylaysiz, urug‘ qanday qilib gulga aylanadi?

4. Siz ham hovli va ko'changizga gullar ekasizmi? Qanday gullardan ekkansiz?
5. Sarishtali, fayzli, gulzor ko'chani qanday tasavvur qilasiz?
6. Hikoyada qanday qadriyatlarimiz o'z aksini topgan deb o'ylaysiz?

Hikoya matnidagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

**fayz** – o'ziga jalb qiluvchi.

**shaxd** – tetik, dadil.

**sarishta** – saranjom.

**"Tanlab o'qish"** mashqi.

Hikoyadan buvi va nevaralarning gaplari rollarga bo'lib o'qitiladi.

**Hikoyadan quyidagi gaplarni topib o'qitiladi:**

- Shahzodning bajargan ishlari aks etgan gaplar;
- qo'ni-qo'shnilar haqida gaplar;
- urug'ning gulga aylanish jarayoni aks etgan gaplar;
- ko'kargan rayhonlar haqida gaplar.

**Mashq daftari bilan ishslash.**

**"Ma'nodoshini top"** mashqi.

Matndan quyidagi so'zlarga ma'nodosh so'z topib yoziladi.

yumush-**ish** o'tgan yilgi -**bulturgi**

manglay-**peshona** chechak-gul

**is-hid** bekor-**bo'sh**

**"O'zgartirib o'qiymen"** mashqi o'tkaziladi.

Bu mashqda o'quvchilar jumlada berilgan so'zning ma'nodoshi bilan o'zgartirib o'qishadi.

Hikoya mazmunini ifodalovchi reja tuzing.

Reja:

1. Yakshanba kuni edi
- 2.
- 3.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

Hikoyadan qanday ibrat oldingiz?

\*Fikrni davom ettirishadi: *Fayzli ko'chalar...*

#### **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

Hikoyaning mazmunini so'zlab bering. Tasavvuringizdagi fayzli, gulzor ko'chaning rasmini chizing.

### **6-Mavzu: Odob-salomdan boshlanadi**

#### **Darsning maqsadi:**

- Shuhrat Rahimovning "Salomlashish odobi" she'ri bilan tanishtirish;
- salomlashish qoidalari bilan tanishtirish;
- hozirjavoblik qobiliyatini shakllantirish.

**Tayanch so'zlar:** salomlashish odobi, assalomu alaykum, tabassum.

**Didaktik materiallar:** mavzuga oid rasmlar.

#### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)**

Darsni tashkil qilish.

**Faollashtiruvchi mashq:** *So'zlar ishtirokida bitta gap tuzing.*

*Qo'l, tabassum, salom*

#### **II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)**

"Bizning ko'cha" hikoyasining mazmuni so'zlab beriladi. Fayzli, gulzor ko'chaning rasmi ko'rildi.

#### **III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)**

**Amaliy topshiriq:** Mashq daftaridagi pufakchalardagi quvnoq harflardan so'z hosil qiling. (Assalomu alaykum)

#### **Muhokama uchun savollar.**

1. Sizda qanday so'z hosil bo'ldi?
2. Bu so'zni qachon aytamiz?
3. Bu so'zni har doim to'g'ri talaffuz qilamizmi?

#### **Mavzuni tushuntirish.**

Suhbat uyushtiriladi.